




JADIDLAR IJODI VA FAOLIYATINING MEDIADA YORITILISHI

Erkinova Surayyo

QDU.Qoraqalpoq filologiyasi va jurnalistika fakulteti Jurnalistika
(faoliyat turlari bo'yicha) yo'nalishi 1-bosqich magistranti
<https://doi.org/10.5281/zenodo.14645720>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 3-yanvar 2025 yil

Ma'qullandi: 5-yanvar 2025 yil

Nashr qilindi: 14-yanvar 2025 yil

Jadid, elektron nashr, oyina.uz,

mushtum, tilda.cc, longrid, format

ABSTRACT

Ushbu ilmiy ishimizda jadidlar ijodi va faoliyatining mediada yoritilishi o'rganilgan. Shuningdek, jadidlar faoliyatini keng targ'ib qilishda jurnalistlarning tutgan o'rni muhimligiga alohida to'xtalib o'tilgan. Bugungi kun talablariga javob bera oladigan, oyina.uz saytida zamonaviy formatda tayyorlangan material misol sifatida keltirildi.

“Umuman, biz jadidchilik harakati, ma’rifatparvar bobolarimiz me’rosini chuqur o’rganishimiz kerak. Bu ma’naviy xazinani qancha ko’p o’rgansak, bugungi kunda ham bizni tashvishga solayotgan juda ko’p savollarga to’g’ri javob topamiz. Bu bebaho boylikni qancha faol targ’ib etsak, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz bugungi tinch va erkin hayotning qadrini anglab yetadi”.¹ Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev aytib o’tganidek, jadidlar faoliyatini xalqqa faol targ’ib etishda medianing o’rni nihoyatda muhim. Jadidlar faoliyati, jadidchilik harakati haqida adabiyot darsliklarining biron bir sahifasida aytib o’tilmagan. Biz ular haqida faqat tarix kitoblaridan ma’lumot olishimiz mumkin edi. Lekin O’zbekiston mustaqillikka erishgach jurnalistlar oldiga birqancha vazifalar qo’ydi. Bunda jurnalistlar jadidlar faoliyatining o’ziga xos xususiyatlarini yoritish bilan birga XX asr jadid matbuoti haqida ma’lumotlar berib, jadidlar g’oyalarini tadqiq qilish, ularning shaxsiyati, mahorat masalalarini yoritish, publitsistikasining ba’zi bir xususiyatlarini o’rganish va o’zlashtirishdagi ahamiyatini tadqiq qilishga qaratmoqda. Jadidlar faoliyati va ijod mahoratini o’rganish yosh jurnalist va ijodkorlar uchun o’ziga xos maktab vazifasini bajarishi bilan bir qatorda, u tayyorlagan material orqali o’quvchi ham ma’lumotga ega bo’ladi. Shu ma’noda jadidlarning publitsistik ijodini o’rganishga zarurat bor. Milliy matbuot paydo bo’lganidan beri jadidlar xalq ongini o’stirishga, haqiqiy siyosiy vaziyatni anglatishga jon-jahdi bilan tirishib, turli gazeta va jurnallarda chiqishlar qilgan.

Millatimiz oydinlari bo’lgan jadid bobolarimizni qanchalik chuqur o’rgansak, shuncha kam. Ammo bugun bu borada qilinayotgan ishlar qanchalik yetarli va xolis? Bugungi kun jurnalistlari Jadidlar faoliyatini mediada yoritishda qay darajada faol?

Avvalo jadid so’ziga to’xtalib o’tsak. So’nggi nashrdan chiqqan o’zbek tilining izoxli lug’atiga ko’ra Jadid-arabchadan olingan bo’lib, “yangi”; “boyagi”, “oxirgi” *tarjimas*i. yangilik tarafdori, jadidchilik harakatining qatnashchisi.² degan ma’nolarni bildiradi.

¹ Jadidlar. Mahmudxo ‘ja Behbudiy (Matn):risola./Z.Abdirashidov.—Toshkent : Yoshlar nashriyot uyi, 2022.—B.3.

² O ‘zbek tilining izoxli lug ‘ati. 6 jildlik. 2-jild.—Toshkent:G ‘afur G ‘ulom, 2022.—B.612.

Auditoriya jadidlar faoliyati, ijodi haqida jurnalistlar tomonidan tayyorlangan yoki tarixchi, adabiyotshunosning mediada berilgan maqolalari orqali keng tushuncha va ma'lumotlarga ega bo'lmoqda. Shu bilan birga jurnalistlar ham jadidlarni o'rganish orqali ularnikidek "yengil hazm bo'luvchi" so'zlarni qo'llash ko'nikmasini oshirishi maqsadga muvofiq. Jadidlar publitsistik asarlari tili xalqona, soda tarzda yozilgan. Unda tayyor shablon so'zlardan foydalanishmagan. Balki shuning uchun ham odamlar gazeta, jurnallarni ko'plashib qiziqib o'qishgan va tushunishgan.

Elektron nashrlarda berilayotgan materiallarning shakl va uslub masalalariga to'xtaladigan bo'lsak. Bugungi kunda onlayn nashrlar orqali axborot oluvchilar soni ko'pchilikni tashkil etadi. Sababi internet qulay va tez axborot uzatishi bilan bir qatorda, unda axborotlarning yangicha formatda berilayotgani ham o'quvchi e'tiboridan chetda qolmayotgani bor gap. Jadidlar faoliyatining elektron nashrlarda yangicha formatda tayyorlanishi ham materialning o'qimishlilikini ta'minlaydi. Shu o'rinda oyina.uz saytida hujjatli longrid formatda tayyorlangan "Haqliq"Mushtum"i haqida - asr oshgan nashrning 100 yillik kechmishlari"³nomli longridni misol sifatida keltirsak. Material Gulnoza Najimatdinova, Iroda Nasimova, Sadoqat Maxsumova muallifligida tayyorlangan. Longridda "Mushtum"ning bir asrlik kechmishlari hikoya qilinadi. Multimediyaviy kantent <https://tilda.cc/ru/> programmasida tayyorlangan bo'lib, unda matn, foto, video va animatsiyalardan foydalanilgan. Mavzuga chuqur yondashilganligi biz matndagi so'zlarning jadidlar davridagidek uslubda yozilganligi: Ya'ni "mazaxlanishi", "ochiqlash", "maslakkishilari", "jarida", "favqulodat", "taftishot", "olatasir", "mazlumlar", "bo'lish-chun", "chiqmaydur", "o'tun", yozishguchilarig'a", "yoshlarg'a", "ko'rmuridlik" kabi hozirgi davr tili bilan jadidlar tili qorishmasidan nihoyatda sarta'sir matn dunyoga kelgan. Ilk sahifasining orqa fonida jurnalning zamonaviy versiyasini qo'lida varaqlayotgan insonning videosi, uning ustidagi sarlavha va mualliflar nomi yozilgan tekst esa alohida o'quvchi e'tiborini tortadi. Jurnal chiqa boshlagan davrda arab alifbosida yozilganligiga urg'u berib, 1-sahifadagi mualliflar ismi yozilgan matn o'ngdan chap tomonga qarata yozilgan. Jurnal jamiyatda qotib qolgan qoidalarga "rioyasizligi" bilan shuhrat qozonganligi Shu boisdan yuqori tashkilotlarning diqqat markaziga tushgani, 20-yillarda millatparvarlik, vatanparvarlik g'oyalari Inqilob va kommunizm mafkurasiga zid bo'lgan ziyolilarning ro'yxatlari shakllantirila boshlagani mushtumning har bir soni alohida monitoring qilingan. Qodiriy tomonidan zimmasiga yuklatilgan vazifa - "el ichida oralab, haqiqatni qoralab, yaxshidan yomonni saralab" beradigan nashr bo'la olgan. Maqola <https://tilda.cc/ru/> programmasida nihoyatda mukammal tarzda qiziqarli va o'qimishli tarzda tayyorlangan. Ushbu programmada tayyorlangan material so'ngida mualliflarning rasmlari bilan ism shariflarini qo'yish mumkin. Huddi mana shu joyda ham "Mushtum" jurnali rassomi Husan Sodiqov tomonidan chizilgan mualliflarning rasmlari joylangan. Umuman olganda bu maqolani o'qiganingizda jadid davri bilan hozirgi davrning shakli, uslubi va tilining o'zaro birlashishi natijasida nihoyatda mukammal asar yaratilganligining guvohi bo'lasiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jadidlar. Mahmudxo'ja Behbudiy (Matn):risola./Z.Abdirashidov.-Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2022.
2. O'zbek tilining izoxli lug'ati. 6 jildlik. 2-jild.-Toshkent:G'afur G'ulom, 2022
3. Jurnalistika nazariyasi, tarixi va taraqqiyoti. 10 jild.1-tom. -Toshkent:O'zbekiston, 2019.
4. Qosimov.B. va b. Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti.T.: "Ma'naviyat", 2004.
5. Jadidchilik: Islohot,yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash. Davriy to'plam.-T.;1999.
6. <https://oyina.uz/uz/article/1429>

³ <https://oyina.uz/uz/article/1429>